

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ESHMAMATOVA DILFUZA BAXROMOVNA

**EPIDEMIOLOGIYA VA EKOLOGIYANING DISKRET MODELLARI:
MATEMATIK VA KOMPYUTERLI TADQIQOT**

**05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor
of physical and mathematical sciences (DSc)**

Eshmamatova Dilfuza Bahromovna

Epidemiologiya va ekologiyaning diskret modellari: matematik va kompyuterli tadqiqot 3

Эшмаматова Дилфуза Бахромовна

Дискретные модели эпидемиологии, экологии: математическое и компьютерное исследование 31

Eshmamatova Dilfuza Bahromovna

Discrete models of epidemiology, ecology:
mathematical and computer research..... 63

E'lon qilingan ishlar ro'yhati

Список опубликованных работ

List of published works 68

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ESHMAMATOVA DILFUZA BAXROMOVNA

**EPIDEMIOLOGIYA VA EKOLOGIYANING DISKRET MODELLARI:
MATEMATIK VA KOMPYUTERLI TADQIQOT**

**05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/FM231 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://ik-fizmat.nuu.uz/>) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

G‘anixo‘jaev Rasul Nabievich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Temirbekov Nurlan Muxanovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor,
akademik (Qozog‘iston)

Jamilov Uyg‘un Umirovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Sadullaeva Shaxlo Azimbaevna

fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Dsc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «___» _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

M.Aripov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d, professor

Z.R. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.

A.S.Matyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi Ilmiy seminar
raisi, f.-m.f.d.

KIRISH (fan doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi (DSc))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida chiziqli bo‘lmagan dinamikada turli xil tuzilma va jarayonlarni tavsiflash usullariga, ularning vaqt va makonda evolyusiyasiga, shuningdek murakkab tuzilmalar ishtirok etadigan jarayonlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Bularning barchasi amaliy jihatdan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Buning natijasida bu kabi amaliy yondashish kvadratik akslantirishlarning dinamik xususiyatlarini o‘rganishga olib keladi. Zamonaviy matematikaning rivojlangan sohasi sifatida qo‘llanilib kelinayotgan ushbu akslantirishlar matematik analiz, differensial tenglamalar, ehtimolliklar va graflar nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bular asosida matematik modellar qurish, hamda ularni sonli yechish usullarini takomillashtirish esa muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda epidemiologik va ekologik jarayonlarni matematik modellashtirish fan, iqtisodiyot va texnikaning rivojida muhim ahamiyatga ega ekanligi sir emas. Bunda kvadratik akslantirishlar orasida Lotka-Volterra diskret akslantirishi alohida o‘rin tutadi. Bu akslantirishlarni tadqiq qilishning dolzarbligi, aerosol yo‘li orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarning tarqalish jarayoni, shu bilan birga ekosistemada biogenlarning aylanish siklini modellashtirish uchun qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Bugungi kunda yuqumli kasalliklarning sezilarli darajada kamayishiga erishildi, ammo, shunga qaramay, bu jarayon inson salomatligi va har qanday mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar yetkazishda davom etmoqda. Bu turdagi amaliy masalalarni yechishda Lotka-Volterra diskret dinamik sistemalarining to‘liq xususiyatlarini ochish, ya’ni ularning qo‘zg‘almas nuqtalarini aniqlash, bu nuqtalarning lokal va global xossalari tahlil qilish, ichki nuqta traektoriyalarining asimptotik xatti-harakatlarini ochish, graflar nazariyasi elementlarini qo‘llash orqali bu akslantirishlar kompozitsiyasining traektoriyalari dinamikasini tahlil qilish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan dinamik sistemalar, ularni tabiiy va amaliy masalalarini sonli-analitik yechish usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa matematiklar va boshqa soha olimlari o‘rtasida yaqin va o‘zaro uzviy aloqalarni o‘rnatishga asos bo‘lmoqda. Bunda texnik va iqtisodiy sohalarda qo‘shma jamoalar barqaror ishlab kelmoqda, lekin biologiya, epidemiologiya va ayniqsa ekologiyada bu jarayon hali boshlang‘ich bosqichda. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasidagi ilmiy izlanishlar olib borish O‘zR FA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi¹. Qaror ijrosini ta’minlashning ustuvor maqsadlaridan biri – epidemiologik va ekologik muammolarni yechishda diskret dinamik sistemalar nazariyasini rivojlantirishdir.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4708-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹.

Kvadratik akslantirishlar, uzluksiz va diskret dinamik sistemalar, ularning tadbiqlari bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari, jumladan, University of California (AQSH), Universidad de Santiago de Compostela (Ispaniya), Institute for Calculus Applications (Italiya), University of Oxford (Buyuk Britaniya), Mathematisches Institut, RWTH Aachen University (Germaniya), Universidad Carlos III de Madrid (Ispaniya), Southern University at New Orleans, National Taiwan Normal University (Tayvan), Zhongshan University, Jilin University, Southeast University, Nantong University, Central South University (Kitay), Paris Mathematics Center, Université Paris-Dauphine (Fransiya), Moskova davlat universiteti (Rossiya), Qozoq milliy universiteti (Qozog‘iston), O‘zbekiston Milliy Universiteti (O‘zbekiston), Samarkand davlat universiteti (O‘zbekiston), O‘zFA V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Uzluksiz va diskret dinamik sistemalar yordamida tavsiflanadigan matematik biologiya va populyatsion genetika jarayonlari dinamikasini tadqiq etishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan bo‘lib, bular jumlasiga, akkresion operatorlar va ularning tadbiqlari uchun variatsion qo‘shimchalar tizimi va iteratsion usullar ishlab chiqilgan (Institute for Calculus

¹ Dissertatsiya mavzusiga doir xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili quyidagi manbalarga asosan bajarilgan: Universal Journal of Computational Mathematics, International Mathematical Journals: Nonlinear Analysis, Applied Mathematical Modelling, Computational Mathematics and Mathematical Physics, Математическая биология и биоинформатика, Вестник Санкт-Петербургского университета. Прикладная математика. Информатика. Процессы управления, Компьютерные исследования и моделирование, Известия высших учебных заведений. Прикладная нелинейная динамика. <http://www.springer.com/mathematics>; <https://www.aimsciences.org>; <http://www.sciencedirect.com/science/jrnallbooks/sub/mathematics>;

Applications); biseksual populyatsiyaga mos turli xil turlarga bo'lingan urg'ochilar to'plami va faqat bitta turga ega erkaklar populyatsiyasini aniqlovchi evolyusion algebra taklif qilingan (Universidad de Santiago de Compostela, O'zFA V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti); avtonom differensial tenglamalar sistemasi yordamida *SIR*, *SEIR* modellari qurilgan, chiziqli va chiziqli bo'lmagan Lyapunov funksiyalaridan foydalangan holda, mos ravishda kasalliksiz va endemik muvozanat holatlari uchun global barqarorlik shartlari o'rnatilgan (Southern University at New Orleans, National Taiwan Normal University, Zhongshan University, Jilin University, Southeast University, Nantong University, Central South University); biseksual populyatsiya uchun to'rt parametrli kvadratik stoxastik Volterra operatorlari oilasi (ya'ni populyatsiyaning har bir organizmi ayol yoki erkak jinsiga tegishli bo'lishi kerak) kiritilgan va parametrlar qanday bo'lishidan qat'i nazar, har bir bunday operator kamida ikkita qo'zg'almas nuqtaga ega ekanligi isbotlangan. Bundan tashqari, ma'lum sharoitlarda, parametrlarga ko'ra, operator cheksiz ko'p qo'zg'almas nuqtalarga egaligi isbotlangan (University of California, O'zFA V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti); *SIR*, *SEIR* epidemik modellarining stoxastik chetlanishlari ishlab chiqilib, stoxastik Lyapunov funksiyalaridan foydalangan holda, uzoq vaqt davomida ikkita stoxastik tizimning xatti-harakatlarini kasallik tarqalishi dinamikasi bazali reproduktiv songa muvofiq o'rganilgan (University of Oxford, Mathematisches Institut, RWTH Aachen University, Universidad Carlos III de Madrid Paris Mathematics Center, Université Paris-Dauphine, Moskva davlat universiteti, Kozoq milliy universiteti).

Dunyoda epidemiologik jarayonlar dinamikasini uzluksiz modellarini sonli modellashtirish bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, infeksiyalarning tarqalishini oddiy differensial tenglamalar sistemalarini yordamida tadqiqot qilish; ularda turg'un holatlarini aniqlash; Lyapunov funksiyalarini qurish; bu usullarga alternativ bo'lgan aholi sonining tebranish dinamikasini tartibga solish orqali ehtimoliy panjarasimon taqsimotlar va avtomatlar usuli bilan o'rganish; bu turdagi modellar orqali tadqiqot o'tkazishdan asosiy maqsad bazali reproduktiv sonni topishdan iborat.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Matematika uchun amaliy muammolarni hal qilish asosida yangi yo'nalishlarni shakllantirish xarakterlidir. Xususan, klassik tahlillar fizika, mexanika va geometriya masalalarini tadqiq qilish va yechish asosida paydo bo'ldi. Biroq, aniq muammolarni hal qilish jarayonida matematikaning ko'lam kengligi hech kimga sir emas. Hozirgi kunda kimyo, texnologiya, muhandislik, tabiatshunoslik, iqtisodiyot, biologiya, ekologiya, epidemiologiya va populyatsion genetikasining aksariyat masalalari matematik va funksional analiz usullari, hamda graflar nazariyasi ob'ektlaridan foydalanilgan holda tadqiq qilinadi. Bunday muammolarni hal qilishda o'rganilayotgan jarayonlarning diskretligini e'tiborga olish lozim va bu juda muhim o'ringa ega. Fizika, mexanika va boshqa fanlar doirasida klassik tahlil masalalarini shakllantirishga olib keladigan muammolarning aksariyatida uzluksiz modellarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu tushunarli albatta, chunki bunda matematik

tadqiqot ob'ekti uzluksiz jarayon, traektoriyalar, maydonlar va boshqalar. Biologiyada esa, bunda o'rganilayotgan ob'ektlarning tizimliliği bilan tavsiflanadi.

Differensial tenglamalarning sifat nazariyasidan kelib chiqqan uzluksiz dinamik sistemalarning asoschilari – A. Puankare, J. Birkhoff, A. Andronov, A.N. Kolmogorov va boshqalardir. Uzluksiz dinamik sistemalar asosan differensial tenglamalar yechimlari hatti–harakatining topologik xususiyatlarini ko'pxilliklarda o'rganadi. So'nggi yillarda dinamik tizimlar nazariyasi ko'plab yo'nalishlarda jadal rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan biz chiroyli matematik ob'ektlar – Mandelbrot va Julia to'plamlariga e'tibor bersak, ular deyarli oxirgi o'n yilda rivojlana boshladi va bu ob'ektlar bilan bog'liq tadqiqotlarning aksariyati kvadratik funksiyalarning iteratsiyalariga qaratilgan. So'nggi ikki asr davomida ko'pgina matematiklar populyatsion genetik masalalarini tadqiq qilish bilan shug'ullanishmoqda. Ushbu masalalarni tadqiq qilishda chekli o'lchamli simpleksda aniqlangan kvadratik akslantirishlar asosiy o'rin egallashi tabiiy albatta. Dastlab genetik sistemalarning eng sodda modellariga Tomas Robert Maltus (1766-1834) va Per Fransua Ferxyulst (1804-1849)lar asos solishgan. O'zaro ta'sir etuvchi populyatsiya jarayonlari va ularning matematik modellarini tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqotlarning tarixiga nazar solsak – bu o'tgan asrning 20-yillari o'rtalarida Alfred Lotka va Vito Volterralar tomonidan taklif qilingan ikkita chiziqli bo'lmagan differensial tenglamalar sistemasi ekanligi hech kimga sir emas. Shu bilan birga G.X.Xardi, Yu.I.Lyubich, G.Kesten, S.N.Bernshteyn, E.Fermi, J.Pasta, S.Ulam, G.F.Gauze, A.A. Lyapunov, A.N. Kolmogorov, Yu.M. Svirejev, D.S. Chernavskiy, Yu.M. Romanovskiy, N.V. Stepanov, G.R. Ivaniskiy, V.I. Krinskiy va hokazolarning matematik biologiyaning rivojlanishiga qo'shgan xissalarini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Dastlab O'zbekistonda dinamik sistemalarni tadqiq qilishda ehtimolliklar usullarini qo'llashga akademik T.A.Sarimsakov asos soldi. Uning tashabbusi bilan Toshkent matematiklar maktabi diskret dinamik sistemalarni batafsil o'rganishga kirishdi. Graflar nazariyasi va differensial tenglamalarning sifat nazariyasidan qo'llagan holda kvadratik stoxastik Lotka-Volterra operatorlari nazariyasining rivojlanishi R.N.G'anixo'jaev ishlari bilan bog'liq. Ushbu nazariya kvadratik akslantirishlar traektoriyalari harakatlarini o'rganishga asoslangan. Chekli o'lchamli simpleksda aniqlangan kubik stoxastik operatorlar asosan N.N.G'anixodjaev, U.A.Rozikov, F.A.Muxammedov, U.U.Jamilov, M.Ladra, A.Yu.Xamraev, F.A.Shahidi, M.Saburovlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. K.A.Kurganovning ilmiy natijalari umumiy holda bo'lgan kososimmetrik matritsaga ega Lotka-Volterra dinamik sistemalarining qo'zg'almas nuqtalari tasnifi, hamda to'rt o'lchamli simpleksda aniqlangan Lotka-Volterra akslantirishlarning ergodik hossalarni o'rganishga bag'ishlangan. Lekin shunga qaramay Lotka-Volterra diskret dinamik sistemalari va ularning kompozitsiyalarini aniq epidemiologik va ekologik jarayonlarga qo'llash bilan bog'liq masalalar hozirgi kungacha ochiq qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti

Toshkent davlat transport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, 28/2022-sonli “Real seysmik ta’sirlarda temir yo‘l ko‘priklari elementlarining nohiziqli o‘zaro ta’sirini hisobga olib hisoblash dasturlari kompleksini yaratish” (2022-2023) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi havo-tomchi yo‘li va jinsiy yo‘l orqali yuqadigan kasalliklar tarqalishi hamda ekosistemada biogenlar aylanishining diskret modellarini qurish va ularning sonli-analitik yechish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

aynigan kososimmetrik matritsaga ega Lotka-Volterra diskret dinamik sistemalarning musbat va manfiy traektoriyalar limit nuqtalari to‘plamlarining mavjudlik shartlarini topish;

havo-tomchi yo‘li orqali tarqaluvchi kasalliklarning diskret modellarini qurish; bu jarayonlar uchun modelning musbat (kasallikning boshlanishi) va manfiy traektoriyalari (kasallikning tugashi)ning limit nuqtalari to‘plamini aniqlash;

ikki o‘lchamli simpleksda aniqlangan Lotka-Volterra diskret dinamik sistemalari kompozitsiyalari asimptotik xarakterining dinamikasini tahlil qilish va ular asosida jinsiy yo‘l orqali yuqadigan virusli kasalliklarni tarqalish jarayonining diskret modellarini qurish; populyatsiyaning infeksiyalangan qismining basseyini aniqlash;

S^{m-1} da aniqlangan bir jinsli turnirlarga mos Lotka-Volterra akslantirishlarining toq sondagi noldan farqli koordinatali qo‘zg‘almas nuqtalarining mavjudlik mezonlarini topish va qo‘zg‘almas nuqtalar kartasini qurish;

simpleksning uchlaridan tashqari, kuchli yoqlarga tegishli boshqa qo‘zg‘almas nuqtalarini topish algoritmini tuzish va uchlari shu qo‘zg‘almas nuqtalarda bo‘lgan invariant egri chiziqlar va invariant sirt mavjudligini isbotlash; olingan analitik natijalar asosida biogenlarning ekosistemada aylanish siklini ifodalovchi diskret modellar qurish;

har bir qurilgan diskret modellarning polinomial tenglamalarining turg‘un va turg‘un bo‘lmagan yechimlarini topish algoritmini tuzish; modellarning amaliy dasturlar majmuini tuzish; sonli taxlil qilish va buning natijasida fazali portretlarini vizualizatsiya qilish; olingan natijalarni real jarayonlarda tekshirish.

Tadqiqotning ob’ekti – aynigan Lotka-Volterra diskret dinamik sistemalari bilan ifodalanuvchi havo-tomchi va jinsiy yo‘l orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarning tarqalish jarayoni, to‘rt o‘lchamli simpleksda aniqlangan bir jinsli Lotka-Volterra akslantirishlari yordamida tavsiflanuvchi uglerod va fosforlarning ekosistemada aylanish siklidan iborat.

Tadqiqotning predmeti – simpleksning kvadratik avtomorfizmlari, aynigan va aynimagan kososimmetrik matritsaga ega Lotka-Volterra akslantirishlari va ularning kompozitsiyalari. Havo-tomchi va jinsiy yo‘l orqali yuqadigan yuqumli kasalliklarning tarqalish jarayoni, hamda to‘rt o‘lchamli simpleksda aniqlangan bir jinsli Lotka-Volterra akslantirishlari yordamida tavsiflanuvchi uglerod va fosforning

ekosistemada aylanish siklining diskret modellarini ishlab chiqish, analitik va sonli yechimlarini topish, fazali portretini qurishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida funksional va matematik analiz, umumiy algebra, topologiya va dinamik sistemalar nazariyasi, graflar nazariyasi, polinomial tenglamalarini hisoblash usullari, iteratsiya usullari qo'llanilgan. Dasturiy majmualarni tuzishda Python 3.10.0, Delphi 10 Lite programmalashtirish tillarida va Wolfram Mathematica 10 tizimidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aynigan kososimmetrik matritsaga ega Lotka-Volterra diskret dinamik sistemalarining musbat va manfiy traektoriyalar limit nuqtalari to'plamlarini mavjudlik shartlari Lyapunov funksiyalarini qurish orqali topilgan;

havo-tomchi yo'li orqali yuqadigan virusli kasalliklar tarqalishining diskret kompartmentar *SIR*, *SEIR*, *SEIRS*, *SIRD* modellari Lotka-Volterra operatorlari asosida qurilgan;

ikki o'lchamli simpleksda aniqlangan Lotka-Volterra diskret dinamik sistemalar kompozitsiyalari asimptotik harakatining dinamikasi aniqlangan;

jinsiy yo'l orqali yuqadigan virusli kasalliklar tarqalish jarayonining diskret modellari ikki o'lchamli simpleksda aniqlangan Lotka-Volterra diskret dinamik sistemalar kompozitsiyalari yordamida qurilgan;

retsidiv va retsidiv bo'lmagan kasalliklar bilan zararlangan populyatsiyaning infeksiyalangan qismini basseynlari Lotka-Volterra akslantirishlari yordamida aniqlangan;

S^{m-1} simpleksda aniqlangan bir jinsli turnirlarga mos Lotka-Volterra akslantirishlarini noldan farqli toq koordinatali qo'zg'almas nuqtalarining mavjudligi topilgan;

simpleksning uchlaridan tashqari, kuchli yoqlarga tegishli qo'zg'almas nuqtalarni topish algoritmlari qurilgan, uchlari shu qo'zg'almas nuqtalarda bo'lgan invariant egri chiziqlar va invariant sirt mavjudligi isbotlangan hamda olingan analitik natijalar asosida ekosistemada uglerod va fosforning aylanish sikli uchun diskret modellar qurilgan;

havo-tomchi va jinsiy yo'l orqali yuqadigan virusli kasalliklarning tarqalish jarayoni hamda ekosistemada uglerod va fosforning aylanish sikli jarayoni diskret modellari uchun polinomial tenglamalarning turg'un va turg'un bo'lmagan yechimlari to'rt o'lchamli simpleksda aniqlangan bir jinsli turnirlarga mos Lotka-Volterra akslantirishlari yordamida topilgan;

virusli kasalliklar tarqalishi va ekosistemada biogenlarni aylanish siklining diskret modellari uchun sonli yechish algoritmlari qurilgan hamda amaliy dasturlar majmui yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olingan tadqiqot natijalari va dissertatsiya ishida olingan analitik usullar populyatsion genetika, epidemiologiyada qo'llanilgan;

qurilgan diskret modellar havo-tomchi (COVID-19 va sil kasalliga) va jinsiy yo'l orqali yuqadigan (OIV/OITS) virusli kasalliklarni populyatsiyada tarqalish dinamikasini qurishda qo'llanilgan;

toq sondagi noldan farqli koordinatali qo'zg'almas nuqtalarining mavjudlik mezonlari, Lotka-Volterra diskret dinamik sistemalari uchun qurilgan qo'zg'almas nuqtalari kartalari uglerod va fosfor ekosistemada aylanish siklini tadqiq qilishda qo'llanilgan.

Tadqiqotlar natijalarining ishonchliligi matematik va funksional analiz usullari, algebra, topologiya, dinamik sistemalar nazariyasi, graflar nazariyasi, shuningdek matematik fikrlashning qat'iyiligi bilan asoslanadi. Analitik natijalar asosida jarayonlarning diskret modellari qurilib, analitik natijalar bilan sonli natijalar tahlil qilingan va ularning aniqligi baholangan. Olingan analitik natijalar Python 3.10.0, Delphi 10 Lite, hamda Wolfram Mathematica 10 tizimida yozilgan matematik dasturlar majmui yordamida tasdiqlanib, ham analitik, ham sonli tahlillar real epidemiologik va ekologik jarayonlarga muvofiq ravishda nazariy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati S^4, S^6 simplekslarda aniqlangan aynigan Lotka-Volterra diskret dinamik sistemalari asosida qurilgan aerazol, fekal-og'iz va jinsiy yo'l bilan tarqaladigan yuqumli kasalliklarning diskret kompartmentar *SIR, SEIR, SEIRS, SIRD* modellarini modifikatsiya qilishdan iborat. Shuningdek, uglerod va fosforning ekosistemada aylanish sikllarini tadqiq qilish uchun qurilgan diskret modellar boshqa murakkab biogenlarning, masalan, azotning ekosistemada aylanish siklini tahlil qilish uchun modifikatsiya qilinishi bilan izohlanadi.

Olingan tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati diskret dinamik sistemalarni matematik biologiya, epidemiologiya, ekologiya, hamda iqtisodiyotning konkret masalalarini yechishda keng qo'llash imkoniyati bilan tasdiqlanadi. Qurilgan diskret modellar va ulardan olingan amaliy natijalarni laboratoriya tadqiqotlarida, xususan uglerod va fosfor aylanishini tahlil qilish, havo-tomchi va jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar tarqalishining oldini olish va zararlangan populyatsiyaning basseynlarni ajratish, hamda ularni kamaytirish maqsadida hizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya ishida analitik va sonli yechish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ixtiyoriy o'lchamli simpleksning kvadratik gomeomorfizmlari va ular kompozitsiyalarining dinamik xossalarini tavsiflash natijalari, ularning ichki nuqtalari traektoriyalarining asimptotik harakatlari dinamikasini o'rganishda, OT–F4–31 “Nokommutativ modullar, Leybnis algebralari va simpleksda polinomial kaskadlar” mavzusidagi fundamental loyihada aynigan kososimmetrik matritsaga ega Lotka–Volterra akslantirishlari dinamikasini graflar nazariyasi elementlari yordamida tadqiq qilishda, bir jinsli turnirlarga mos Lotka-Volterra akslantirishlarining noldan farqli toq koordinatali qo'zg'almas nuqtalarini topish algoritmini qurishda, ular uchun invariant sirt mavjudligini isbotlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 22 maydagi 04/11–3068-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi bu dinamik sistemalarni epidemiologik jarayonlarga tadqiq qilish uchun qo'llash maqsadida *SIR, SEIR, SEIRS, SIRD* diskret modellarini qurish hamda ikki o'lchamli simpleksda

aniqlangan Lotka-Volterra akslantirishlarining qo'zg'almas nuqtalar xarakterini to'liq tasniflash va kartalarini qurish imkonini bergan;

Lotka-Volterra sistemalari uchun qo'zg'almas nuqtalari kartalarini tuzish asosida uglerod va fosforni ekosistemada aylanish sikli dinamikasini tahlil qilishda UMT/CRIM/2-2/2/14 «Kuch kabelining koeffitsientini topish uchun o'zgartirilgan gomotopik tahlil usuli» ilmiy grantida simpleksning kvadratik gomeomorfizmlari, aynigan va aynimagan kososimmetrik matritsalar uchun Lotka-Volterra akslantirishini aniqlashda foydalanilgan (Malaziya Terengganu universitetining 2023 yil 30 maydagi UMT/FTKKI/500-35-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi, aynigan Lotka-Volterra akslantirishlari va ularning kompozitsiyalari uchun musbat va manfiy traektoriyalarining dinamikasini tahlil qilish imkonini bergan. Analitik yondashuv, fazali portretni qurish va modellarning to'liq sonli tahlilini amalga oshirish imkonini bergan;

ikki o'lchamli simpleksda aniqlangan Lotka-Volterra operatorlari va ularning kompozitsiyalari analitik yechimlaridan 28/2022-sonli "Real seysmik ta'sirlarda temir yo'l ko'priklari elementlarining noxiziqli o'zaro ta'sirini hisobga olib hisoblash dasturlari kompleksini yaratish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasida temir yo'l ko'prigining texnik holatini baholash imkoniyati – seysmik holatdagi turli zilzilalarni real qayd etishda foydalanuvchi tomonidan kiritilgan va mavjud bo'lgan ko'prik tuzilmalari uchun yaratilayotgan dasturiy ta'minot paketining ishchi interfeysida ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirishda foydalanilgan (Toshkent davlat transport universitetining 2023 yil 19 iyundagi № 04/01-3729-sonli ma'lumotnoma). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi, temir yo'l ko'priklariga seysmik ta'sirlarni baholash imkonini bergan;

bir jinsli turnirlarga mos Lotka-Volterra akslantirishlar va ular kompozitsiyalari ichki nuqtalari traektoriyalari dinamikasi, havo-tomchi va jinsiy yo'l bilan yuqadigan virusli kasalliklar tarqalishining diskret modellalaridan PID2020-115155GB-100 (European FEDER support included, EU)-«Homology, homotopy and categorical invariants in groups and nonassociative algebras» grant loyihasida biseksual populyatsiyaga mos turli xil turlarga ajratilgan urg'ochilar to'plami, hamda faqat bitta turga ega erkaklar populyatsiyasini aniqlovchi evolyutsion algebralarni aniqlashda foydalanilgan (Ispaniyaning Santyago de Kompostella Universiteti ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi, parametrlar uchun topilgan shartlar asosida epidemiya populyatsiyaning qaysi qismida boshlanib, qaysi qismida tugashini topish uchun qo'llash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 21 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, hamda O'zFA V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining "Operator algebralari va ularning tatbiqlari" nomli hamda O'zMU ning akademik T.A. Sarimsoqov nomidagi "Funksional analiz va uning tatbiqlari", Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining "Murakkab tizimlarni modellashtirish" laboratoriyasi ilmiy seminarlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 50 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta ilmiy maqola, jumladan, 12 tasi xorijiy (8 tasi Scopus halqaro bazaga kiritilgan jurnallarda, shu jumladan 2 tasi Q2 kvartil) jurnallarda va 33 ta tezislar anjumanlar nashrlarida e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligidan 8 ta dasturlar majmuasiga guvohnoma(DGU)lar olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 198 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochilgan, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi "**Lotka-Volterra sistemalarining diskret va uzluksiz modellari**" deb nomlanib, bunda populyatsion genetika va epidemiologiya jarayonlarini ifodalovchi uzluksiz modellariga, hamda Lotka-Volterra diskret akslantirishlariga oid aniq faktlar va aynigan kososimmetrik matritsaga ega diskret Lotka-Volterra akslantirishlariga oid yangi natijalar keltirilgan. Ushbu bobning birinchi paragrafida uzluksiz vaqtli dinamik sistemalarni sifat analizi elementlari tasvirlangan, uzluksiz vaqtli dinamik sistemalarning qo'zg'almas nuqtalarining to'liq tavsifi berilgan, traektoriyalarning limit nuqtalari to'plamlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ikkinchi paragrafda turlararo munosabatlarning matematik nazariyasi, hamda uzluksiz Lotka-Volterra modeli yordamidan tasvirlangan turlararo munosabatlarning tasnifi, shuningdek V. O. Kermak va A. G. Makkendriklar (1927 y) tomonidan kiritilgan klassik kompartmentar *SIR* modeli haqida ma'lum bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan.

Bobning uchinchi paragrafi diskret Lotka-Volterra dinamik sistemalari va ularning xususiyatlarini tavsiflashga bag'ishlangan.

Aytaylik \square^m fazoda $(m-1)$ -o'lchamli simpleks quyidagicha aniqlansin:

$$S^{m-1} = \left\{ x = (x_1, \dots, x_m) : x_i \geq 0, \sum_{i=1}^m x_i = 1 \right\} \subset \square^m. \quad (1)$$

Ma'lumki, R.N.G'anixo'jaevning ilmiy ishlarida $V : S^{m-1} \rightarrow S^{m-1}$ Lotka-Volterra diskret akslantirishining kanonik ko'rinishi keltirilgan:

$$V : x'_k = x_k \left(1 + \sum_{i=1}^m a_{ki} x_i \right), \quad k = \overline{1, m}, \quad (2)$$

bunda $a_{ki} = -a_{ik}, |a_{ki}| \leq 1, k, i = \overline{1, m}$.

Kelgusida quyidagilardan foydalanamiz:

1-ta'rif. Agar kososimmetrik matritsaning barcha juft tartibli bosh minorlari noldan farqli bo'lsa, u holda bu kososimmetrik matritsa umumiy holda deyiladi.

1-teorema. Lotka-Volterra akslantirishi S^{m-1} simpleksning avtomorfizmidir.

2-teorema. Aytaylik $A = (a_{ki}), k, i = \overline{1, m}$ – kososimmetrik matritsa bo'lsin. U holda

$$P = \left\{ x \in S^{m-1} : \sum_{i=1}^m a_{ki} x_i \geq 0, k = \overline{1, m} \right\}, \quad Q = \left\{ x \in S^{m-1} : \sum_{i=1}^m a_{ki} x_i \leq 0, k = \overline{1, m} \right\}$$

to'plamlar bo'sh bo'lmagan qavariq ko'pyoqlardir.

Qator tatbiqiy masalalarda jarayonlar aynigan kososimmetrik matritsaga ega diskret Lotka-Volterra akslantirishlari orqali tavsiflanishi ma'lum, lekin bu ko'rinishdagi akslantirishlar hozirgi kunga qadar o'rganilmagan. Dissertatsiya ishida aynigan kososimmetrik matritsaga ega diskret Lotka-Volterra sistemalari asosida epidemiologiya va ekologiyaning o'ziga xos muammolarining diskret modellari qurilgan. Bobning to'rtinchi paragrafi esa shu turdagi akslantirishlarning yangi analitik natijalarini bayon qilishga bag'ishlangan.

Birinchi bobning asosiy natijalarini keltiramiz:

3-teorema. Ixtiyoriy ichki $x \in S^2$ nuqtaning traektoriyasi P to'plamda boshlanadi va Q to'plamda tugaydi, ya'ni $\alpha(x) \in P$ va $\omega(x) \in Q$.

Bunda $\alpha(x)$ va $\omega(x)$ lar mos ravishda manfiy va musbat traektoriyalarning limit nuqtalari to'plami.

1-izoh. Grobman-Xartman teoremasiga ko'ra, ixtiyoriy nuqtaning traektoriyasi invariant egri chiziqda yotadi.

Quyidagi $V : S^3 \rightarrow S^3$ Lotka-Volterra sistemasini qaraylik:

$$x'_1 = x_1(1 - ax_2 - bx_4),$$

$$x'_2 = x_2(1 + ax_1 - cx_3),$$

$$x'_3 = x_3(1 + cx_2 + dx_4),$$

$$x'_4 = x_4(1 + bx_1 - dx_3),$$

bunda $0 < a, b, c, d \leq 1$. Bu shartlarda V avtomorfizm bo'ladi. Aytaylik $\Gamma_{123} - S^3$ simpleksning $e_1 = (1, 0, 0, 0)$, $e_2 = (0, 1, 0, 0)$ va $e_3 = (0, 0, 1, 0)$ uchlariga tortilgan yog'i bo'lsin. Ma'lumki simpleksning ixtiyoriy yog'i yana simpleks, bunda ixtiyoriy yoq V akslantirishga nisbatan invariant va V akslantirishning ixtiyoriy yog'iga nisbatan toraytmasi yana Lotka-Volterra akslantirishi bo'ladi.

4-teorema. V akslantirishning ixtiyoriy traektoriyasi yaqinlashadi. Agar boshlang'ich nuqta S^3 simpleksning ichki nuqtasi bo'lsa, u holda

$$\alpha(x^0) \in \left\{ \left(\frac{(1-t)a+c}{a+c}, 0, \frac{ta}{a+c}, 0 \right) \right\}, \quad \omega(x^0) \in \left\{ \left(\frac{(1-t)b+d}{b+d}, 0, \frac{tb}{b+d}, 0 \right) \right\},$$

bunda $0 < t \leq 1$. Demak, manfiy va musbat traektoriyalar limit nuqtalari to'plami

Γ_{13} qirraga tegishlidir. Agar biror sistemaning evolyutsiya qonuni V akslantirishi bilan aniqlansa, u holda evolyutsiya boshi va oxiri Γ_{13} qirraga tegishlidir.

Shu bilan birga birinchi bobning oxirgi paragrafida polinomial tenglamalarni yechishning taqribiy usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Polinomial (ayirmali) tenglamalarning turg'ur va turg'un bo'lmagan yechimlarini topish algoritmi berilgan.

Ishning ikkinchi bobi "**Havo-tomchi yo'li orqali tarqaluvchi virus kasalliklarning diskret modellari**" deb nomlangan. Aytaylik, quyidagi diskret dinamik sistema havo-tomchi yo'li bilan yuqadigan virus kasalliklari tarqalishining diskret modelini aniqlasin;

$$V : S^2 \rightarrow S^2 : \begin{cases} x_1^{(n+1)} = x_1^{(n)} (1 - a_{12} x_2^{(n)}), \\ x_2^{(n+1)} = x_2^{(n)} (1 + a_{12} x_1^{(n)} - a_{23} x_3^{(n)}), \\ x_3^{(n+1)} = x_3^{(n)} (1 + a_{23} x_2^{(n)}) \end{cases} \quad (3)$$

bunda $x_i, i = \overline{1,3}$ o'zgaruvchilar quyidagi epidemiologik ma'noni anglatadi:

x_1 – sog'lom, ammo infeksiyaga moyil shaxslar, – S guruhi (susceptible);

x_2 – infeksiyalangan va boshqa shaxslarni yuqtirishga moyil, – I (infected);

x_3 – tuzalgan va immunitetga ega bo'lgan shaxslar – R (recovered).

U holda bu belgilashlarda (3) operator quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$V_{SIR} : \begin{cases} S^{(n+1)} = S^{(n)} - aS^{(n)}I^{(n)}, \\ I^{(n+1)} = I^{(n)} + aI^{(n)}S^{(n)} - bI^{(n)}R^{(n)}, \\ R^{(n+1)} = R^{(n)} + bI^{(n)}R^{(n)}. \end{cases} \quad (4)$$

Modelda uchchala guruh ishtirokchilari teng taqsimlangan populyatsiya qaralgan bo'lib, har bir individ boshqasi bilan bir hil ehtimollik bilan aloqa o'rnatishi mumkin. Bunda inkubatsion jarayon juda kichik bo'lganligi sababli, uni inobatga olmaymiz. Modelning uzluksiz modeldan asosiy farqi – uchinchi tenglamadagi $I^{(n)} \cdot R^{(n)}$ ko'paytma, ya'ni tuzalgan individning yana infeksiyaga moyil ekanligini anglatadi. Model inkubatsiya davrini hisobga olmaganligi sababli, uni juda kichik inkubatsiya davrli virusli infeksiyalarni tadqiq qilish uchun qo'llash mumkin.

5-teorema. Agar diskret SIR model (4) sistema bilan aniqlansa, u holda simpleksning ixtiyoriy ichki $x^0 \in S^2$ nuqtasining traektoriyasi Γ_{SR} qirrada yotadi va

bu qirrada ajratuvchi neytral $N\left(\frac{b}{a+b}, 0, \frac{a}{a+b}\right) \in \Gamma_{SR}$ nuqta mavjud bo'lib, bunda quyidagilar o'rinli

$$P = \left\{ x \in S^2 : Ax \geq 0 \right\} = \left\{ \left(\frac{a + (1-\lambda)b}{a+b}; 0; \frac{\lambda b}{a+b} \right); 0 \leq \lambda \leq 1 \right\},$$

$$Q = \left\{ x \in S^2 : Ax \leq 0 \right\} = \left\{ \left(\frac{(1-\lambda)a}{a+b}; 0; \frac{b+\lambda a}{a+b} \right); 0 \leq \lambda \leq 1 \right\}.$$

Agar boshlang'ich nuqta I uch va neytral N nuqtani birlashtiruvchi egri chiziqdan chapda yotsa, u holda kasallik avjiga chiqadi, lekin muayyan vaqtgacha. Agar nuqtaning traektoriyasi bu egri chiziqdan o'ngga o'tsa, u holda epidemiya ortga qaytadi, bu esa Q to'plamda sodir bo'ladi.


6-teorema. Agar \overline{SN} kesmaga tegishli qo'zg'almas nuqtalar \overline{NR} kesmaga tegishli qo'zg'almas nuqtalar bilan (p, q) juftlikni tashkil etsa, u holda \overline{NR} kesmaga tegishli ixtiyoriy qo'zg'almas nuqtaning biror atrofida V akslantirish lokal diffeomorfizm bo'ladi, hamda \overline{SN} va \overline{NR} kesmaga tegishli (p, q) juftlikni tashkil etuvchi nuqtalarni tutashtiruvchi invariant egri chiziq mavjud.

7-teorema. Musbat traektoriyalarning limit nuqtalar to'plami $\omega(x^0) \subset Q$ va manfiy traektoriyalarning limit nuqtalar to'plami $\alpha(x^0) \subset P$, ya'ni kasallik P to'plamda boshlanib, Q to'plamda tugaydi.

2-izoh. Grobman-Xartman teoremasiga ko'ra, agar ixtiyoriy nuqtaning traektoriyasi uchun $\alpha(x^0) \subset P$, $\omega(x^0) \subset Q$ o'rinli bo'lsa, u holda musbat va manfiy traektoriyalarni o'z ichiga olgan invariant egri chiziq mavjud.

1-tasdiq. Quyidagi $M = \{x \in S^{m-1} : \varphi_p(x) \geq C\}$ to'plam shunday xususiyatga egaki, $\forall x^0 \in M$ uchun manfiy traektoriyalar shu M to'plamga tegishli bo'ladi. Bu erga $\varphi_p(x) = x_1^{p_1} \cdot x_2^{p_2} \cdot x_3^{p_3}$ – Lyapunov funksiyasi.

Bobning ikkinchi paragrafida aynigan kososimmetrik matritsaga ega uch o'lchamli simpleksda aniqlangan diskret Lotka-Volterra akslantirishlari dinamikasi qaralgan. Bu sistemalar havo-tomchi yo'li orqali yuqadigan, inkubatsion (latent) jarayonga ega, residiv bo'lmagan virus kasalliklarni tarqalishini tadqiq qiluvchi *SEIR* diskret model sifatida taklif etilgan. *SEIR* diskret modeli sifatida aynigan kososimmetrik matritsaga ega, uch o'lchamli simpleksda aniqlangan diskret Lotka-Volterra akslantirishlari va ularga mos qisman-orientirlangan graflar soni to'rttani tashkil etadi. Quyida keltirilgan modellar (1-rasmga qarang) alohida jarayonni tavsiflaganligi sababli, dissertatsiya ishida har bir model alohida tahlil qilingan va ishning 1-ilovasida har bir model qaysi turdagi kasalliklarning tarqalish dinamikasini tavsiflashi berilgan.



1-rasm. Havo-tomchi yo'li bilan yuqadigan, inkubatsion (latent) jarayonga ega, residiv bo'lmagan virus kasalliklari tarqalishini aks etuvchi qisman-orientirlangan graflar.

1-rasmdagi 1-modelda guruhdan-guruhga faqat bitta o'tish $S \rightarrow E \rightarrow I \rightarrow R$ mavjud va sistema quyidagi ko'rinishga ega:

$$V_1: \begin{cases} S' = S(1 - aE), \\ E' = E(1 + aS - dI), \\ I' = I(1 + dE - fR), \\ R' = R(1 + fI). \end{cases}$$

8-teorema. Agar kasallikni tarqalishini 1-model tasvirlasa, u holda P va Q to'plamlar quyidagiga teng:

$$P = \left\{ \left(\frac{d + (1 - \lambda)a}{a + d}; 0; \frac{\lambda a}{a + d}; 0 \right); 0 \leq \lambda \leq 1 \right\}, Q = \left\{ \left(0; \frac{(1 - \lambda)f}{f + b}; 0; \frac{d + \lambda f}{f + b} \right); 0 \leq \lambda \leq 1 \right\}.$$

2- modelning ko'rinishi:

$$V_2: \begin{cases} S' = S(1 - aE), \\ E' = E(1 + aS - dI - eR), \\ I' = I(1 + dE - fR), \\ R' = R(1 + eE + fI). \end{cases}$$

9-teorema. Agar epidemiologik model quyidagi ikkita $S \rightarrow E \rightarrow R$ va $S \rightarrow E \rightarrow I \rightarrow R$ o'tishlarni o'z ichiga olsa, u holda bu o'tishlarning har biri uchun quyidagi shartlar o'rinli:

1) $S \rightarrow E \rightarrow R$. Bu o'tishda individlarda kasallik ochiq holda aks etmaydi, ya'ni faqat latent jarayonida kechadi. Bunda butun jarayon simpleksning Γ_{SER} yog'ida

kechadi, ya'ni Γ_{SR} qirrada ajratuvchi shunday neytral $N_1 \left(\frac{e}{a + e}; 0; 0; \frac{a}{a + e} \right)$ nuqta

mavjudki, bunda

$$P = \left\{ \left(\frac{a + (1 - \lambda)e}{a + e}; 0; 0; \frac{\lambda e}{a + e} \right); \right\}, Q = \left\{ \left(\frac{(1 - \lambda)a}{a + e}; 0; 0; \frac{e + \lambda a}{a + e} \right); \right\}, 0 \leq \lambda \leq 1.$$

Agar boshlang'ich nuqta E uch va neytral N_1 nuqtani birlashtiruvchi egri chiziqlardan chapda yotsa, u holda kasallik muayyan vaqtgacha avjiga chiqadi. Agar nuqtaning traektoriyasi bu egri chiziqdan o'ngga o'tsa, u holda epidemiya ortga qaytadi, bu esa Q to'plamda sodir bo'ladi.

2) $S \rightarrow E \rightarrow I \rightarrow R$. Bunda individ kasallikning barcha jarayonlaridan o'tadi. Jarayon qisman-orientirlangan grafni butunlay qamraydi. U holda kasallik Γ_{SI}

qirraning qismida boshlanadi $P = \left\{ \left(\frac{a + (1 - \lambda)d}{a + d}; 0; \frac{\lambda d}{a + d}; 0 \right); 0 \leq \lambda \leq 1 \right\}$ va Γ_{SR}

qirraning qismida tugaydi, ya'ni $Q = \left\{ \left(\frac{(1 - \lambda)a}{a + e}; 0; 0; \frac{e + \lambda a}{a + e} \right); 0 \leq \lambda \leq 1 \right\}$.

Oxirgi 3-4-modellar uchun quyidagi natijalar olingan.

10-teorema. Agar epidemiologik model kasallikni quyidagi ikkita o'tish jarayonini qamrasa, ya'ni $S \rightarrow I \rightarrow R$ va $S \rightarrow E \rightarrow I \rightarrow R$, u holda

1) $S \rightarrow I \rightarrow R$ o'tish uchun quyidagilar o'rinli: bunday o'tishda kasallik darhol rivojlanadi, vaziyat simpleksning Γ_{SIR} yog'ida bo'lib, Γ_{SR} qirrada neytral

$N_2 \left(\frac{f}{b+f}; 0; 0; \frac{b}{b+f} \right) \in \Gamma_{SR}$ nuqta mavjud. Surunkali kasalliklarga chalingan individlarning kasalligi simpleksning uchlari S , I va neytral N_2 nuqtasini bog'laydigan qismida boshlanadi, ya'ni, kasallikning boshlanishi va uning rivojlanishi simpleksning ichki nuqtalarida, Γ_{SR} qirra qismining qo'zg'almas nuqtalari yaqinida sodir bo'ladi va oxiri Γ_{SR} ning boshqa qismida bo'ladi, ya'ni

$$P = \left\{ \left(\frac{b+(1-\lambda)f}{b+f}; 0; 0; \frac{\lambda f}{b+f} \right) \right\}, Q = \left\{ \left(\frac{(1-\lambda)b}{b+f}; 0; 0; \frac{f+\lambda b}{b+f} \right) \right\}, 0 \leq \lambda \leq 1.$$

Agar boshlang'ich nuqta I uch va neytral N_2 nuqtani birlashtiruvchi egri chiziqlardan chapda yotsa, u holda kasallik muayyan vaqtgacha avjiga chiqadi. Agar nuqtaning traektoriyasi bu egri chiziqdan o'ngga o'tsa, u holda epidemiya ortga qaytadi, bu esa Q to'plamda sodir bo'ladi.

2) $S \rightarrow E \rightarrow I \rightarrow R$ da individlar kasallikning barcha jarayonlarini o'tkazadilar. Infeksiyalangan individlar butun simpleks bo'ylab yurishadi. Kasallik simpleks Γ_{SR} qirrasining bir qismi atrofida individlarda boshlanadi, ya'ni

$$P = \left\{ \left(\frac{b+(1-\lambda)f}{b+f}; 0; 0; \frac{\lambda f}{b+f} \right); 0 \leq \lambda \leq 1 \right\},$$

Γ_{ER} qirraning qismida esa kasallik tugaydi

$$Q = \left\{ \left(0; \frac{(1-\lambda)d}{d+f}; 0; \frac{f+\lambda d}{d+f} \right); 0 \leq \lambda \leq 1 \right\}.$$

11-teorema. Agar epidemiologik jarayon uchta o'tishni o'z ichiga olsa, ya'ni $S \rightarrow I \rightarrow R$, $S \rightarrow E \rightarrow R$, $S \rightarrow E \rightarrow I \rightarrow R$, u holda quyidagilar o'rinli:

1) $S \rightarrow I \rightarrow R$: Bunda jarayon Γ_{SIR} yoqda o'tadi, ya'ni Γ_{SR} qirrada neytral

$N_3 \left(\frac{f}{f+b}, 0, 0, \frac{b}{f+b} \right) \in \Gamma_{SR}$, nuqta mavjud va

$$P = \left\{ \left(\frac{b+(1-\lambda)f}{f+b}; 0; 0; \frac{\lambda f}{f+b} \right); 0 \leq \lambda \leq 1 \right\}, Q = \left\{ \left(\frac{(1-\lambda)b}{f+b}; 0; 0; \frac{f+\lambda b}{f+b} \right); 0 \leq \lambda \leq 1 \right\}.$$

Agar boshlang'ich nuqta I uch va neytral N_3 nuqtani birlashtiruvchi egri chiziqdan chapda yotsa, u holda kasallik muayyan vaqtgacha avjiga chiqadi. Agar nuqtaning traektoriyasi bu egri chiziqdan o'ngga o'tsa, u holda epidemiya ortga qaytadi, bu esa Q to'plamda sodir bo'ladi.

